



## Reference

1. Остроумов Н.П. Сарты. Этнографические материалы. Вып. 3. Пословицы и загадки сартов. Ташкент, 1895. – 174-с.
2. Н. Zarifov-O'zbek folkloridan namunalar (tadqiqotlar, tekstlar, lug'at). – Toshkent, 1935y. – 244 b.
3. Мирзаев Т.М. Сўздан сўзнинг фарқи бор // Ўзбек халқ мақоллари. <https://khdavron.uz/kutubxona/uzbek/ozbekxalq-maqollari.html>
4. Murodova M. Folklor va etnografiya. –T.: «Aloqachi», 2008. – 166 b.
5. Imomov K., Mirzayev T., Sarimsoqov B., Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. -T.: O'qituvchi, 1990. – 143 b.
6. Madiyeva M. "Some translation conventions English language brands in Uzbek" *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*. ISSN: 2249-7137 Vol.12, Issue 07, July 2022. – P. 151-156.
7. Axmedova U.K.-Ingliz va o'zbek maqollarining lingvokulturologik va semantik xususiyatlari.-Dis.-Urganch.-2014y. – 190 b.
- 7Madayev O., Sobitova T. Xalq og'zaki poetik ijodi. – T.: Sharq, 2010. – 240 b.
8. Otalar so'zi – aqlning ko'zi (so'zboshi, matn, izohlar). – Toshkent, 1947. 243b.
9. Lug'at ham termin to'plovchilarga qo'llanma. – Toshkent, 1934; O'zbeklarda og'zaki adabiyot / Adabiyot sohasidagi ilmiy tekshirishlar. 2-kitob. – Toshkent, 1934. – 240 b.

## XORIJIY TIL DARSLARIDA HUQUQIY MATNLAR BILAN ISHLASHNING SAMARALI USULLARI

**Raxmatova Bahora Ibodulla qizi**

**Katta o'qituvchi, Oriental universiteti, Toshkent**

**TDSHU Mustaqil izlanuvchisi**

Annotatsiya. Ushbu maqolada xorijiy til ta'limida huquqiy matnlar bilan ishlashning samarali usullari yoritilgan. Til va huquq o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, huquqiy diskursning lingvopragmatik xususiyatlari hamda bu matnlarni o'qitish jarayoniga tatbiq etish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Mazkur maqola xorijiy til darslarida huquqiy matnlar asosida o'quvchilarning lug'at boyligini, matnni tushunish ko'nikmasini va mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodik yondashuvlarni taklif qiladi. Shuningdek, o'qituvchilar uchun huquqiy matnlar bilan ishlashning bosqichlari - tayyorgarlik, tahlil va refleksiya jarayonlari ko'rsatib o'tiladi.

Kalit so'zlar: huquqiy matn, xorijiy til, huquqiy diskurs, lingvopragmatika, metodika, ta'lim usullari.

Abstract. This article explores effective methods of working with legal texts in foreign language teaching. It examines the interrelation between language and law, the linguo-pragmatic features of legal discourse, and the ways these texts can be applied in the educational process. The author proposes methodological approaches aimed at developing students' vocabulary, text comprehension, and logical reasoning skills through the analysis of legal texts. Furthermore, the article outlines key stages for teachers to work with such texts, including preparation, analysis, and reflection.

Keywords: legal text, foreign language, legal discourse, linguopragmatics, methodology, teaching techniques.



Аннотация. В статье рассматриваются эффективные методы работы с юридическими текстами на уроках иностранного языка. Анализируется взаимосвязь между языком и правом, лингвопрагматические особенности юридического дискурса и возможности их применения в учебном процессе. Автор предлагает методические подходы, направленные на развитие словарного запаса, понимания текста и логического мышления студентов на основе юридических текстов. Также описаны основные этапы работы преподавателя с юридическими текстами: подготовка, анализ и рефлексия.

Ключевые слова: юридический текст, иностранный язык, юридический дискурс, лингвопрагматика, методика, методы обучения.

Bugungi globallashuv va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanish davrida xorijiy til ta'limi insonning kasbiy va ijtimoiy hayotida hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Xorijiy tilni o'rganish endilikda faqat muloqot vositasini egallash bilan chegaralanmay, balki mutaxassislikka oid terminologiyani, hujjat turlarini va turli sohalarga xos diskurslarni o'zlashtirishni ham talab qilmoqda. Shu jihatdan, xorijiy til darslarida huquqiy matnlar bilan ishlash - til o'qitishning yangi bosqichi sifatida e'tirof etilmoqda. Huquqiy matnlar o'zining rasmiy uslubi, qat'iy tuzilishi va aniqlik talab qiluvchi xususiyati bilan boshqa turdagi matnlardan ajralib turadi. Bunday matnlar tilning semantik, sintaktik hamda pragmatik jihatlarini chuqur tahlil qilish imkonini beradi. Shu sababli ularni xorijiy til ta'limiga kiritish nafaqat lingvistik, balki tarbiyaviy va madaniy maqsadga ham xizmat qiladi. Huquqiy matnlar ustida ishlash orqali o'quvchilar davlat tuzilmasi, qonunlar tizimi, ijtimoiy mas'uliyat va fuqarolik ongining asosiy tushunchalari bilan tanishadilar.

Shuningdek, huquqiy diskurs xorijiy til o'rganuvchilar uchun nutq aktlari, ijtimoiy rollar va kommunikativ strategiyalarni tushinishda samarali manba hisoblanadi. J. R. Searle (1969) tomonidan ishlab chiqilgan nutq aktlari nazariyasiga ko'ra, har bir huquqiy matnning pragmatik maqsadi mavjud bo'lib, u so'zlovchining niyatini aniq ifodalaydi. Masalan, qonun moddalari deklarativ aktlar asosida tuzilsa, shartnoma yoki ariza matnlari direktiv va komissiv aktlarni o'z ichiga oladi. Shu orqali o'quvchilar nafaqat til strukturasi, balki muloqotdagi huquqiy niyat va javobgarlik mexanizmlarini ham o'rganadilar.

Huquqiy matnlarni xorijiy til darslariga tatbiq etishning yana bir muhim jihati bu o'quvchilarning mantiqiy fikrlash, tahlil qilish va dalillash ko'nikmalarini rivojlantirishidir. Bunday matnlar aniq mantiqiy bog'lanishlarga, qat'iy sabab-oqibat munosabatlariga asoslanadi. Shu bois ularni o'qish va tahlil qilish jarayonida o'quvchilar nafaqat til bilimini oshiradi, balki tildan foydalanish madaniyatini ham egallaydi. Shu bilan birga, huquqiy matnlar bilan ishlash xorijiy til darslarida ko'p madaniyatli kompetensiyani rivojlantiradi. Chunki huquqiy atamalar, normativ ifodalar va rasmiy tildagi iboralar har bir mamlakatda o'ziga xos madaniy konnotatsiyaga ega. Masalan, ingliz tilidagi "common law", "equity" yoki "act of parliament" tushunchalarini o'rganish orqali o'quvchi ingliz huquq tizimining madaniy va tarixiy asoslarini ham bilib oladi. Natijada, xorijiy til darslarida huquqiy matnlar bilan ishlash - bu o'quvchining til, madaniyat va huquqni bir butun tizimda idrok etishiga zamin yaratadi. Ushbu integrativ yondashuv o'qituvchidan nafaqat metodik mahoratni, balki lingvopragmatik tahlilni chuqur tushinishni ham talab etadi.

Til va huquq o'zaro uzviy bog'liq tizimlardir. Har bir huquqiy matn - bu lingvistik jihatdan qurilgan, ammo ijtimoiy va huquqiy maqsadni ko'zlagan kommunikativ aktdir. Shu



sababli huquqiy diskursni o'rganish tilshunoslikning pragmatika, stilistika, sotsiolingvistika va matn lingvistikasi kabi bo'limlari bilan bevosita bog'liqdir. J. Searle (1969), H. P. Grice (1975) va G. Leech (1983)larning nutq aktlari nazariyasi huquqiy diskursni tahlil qilish uchun mustahkam nazariy poydevor yaratdi. J. Searle o'zining "Speech Acts" asarida so'zlovchining niyati va matnning illokutsional kuchi o'rtasidagi bog'liqlikni tushuntirar ekan, aynan huquqiy matnlarning deklarativ va direktiv tabiatini izohlash imkonini berdi. Grice esa "muloqotning hamkorlik prinsipi" (Cooperative Principle)ni ilgari surib, huquqiy matnlar tilining aniq, mantiqli va iqtisodiy bo'lishi zarurligini asoslab berdi. G. Leech (1983) esa "Pragmatika prinsiplari" asarida odob, rasmiylik va ijtimoiy masofa kabi omillarni muloqotdagi muhim pragmatik kategoriyalar sifatida ko'rsatadi - bu jihatlar ayniqsa qonunlar va rasmiy hujjatlar tili uchun dolzarbdir.

E. M. Zorina (2002) huquqiy matnlarning lingvistik tuzilmasini o'rganib, ularni ijtimoiy kommunikatsiyaning maxsus turi sifatida ta'riflaydi. Uning fikricha, huquqiy matnlar nafaqat huquqiy normalarni ifodalaydi, balki jamiyatdagi ijtimoiy munosabatlarni ham tartibga soluvchi kommunikativ vositadir. Shu nuqtayi nazardan, Zorina huquqiy matnlarni formal, terminologik va semantik jihatdan qat'iy tuzilgan tizim sifatida talqin etadi. So'nggi yillarda xorijiy til ta'limi sohasida ESP (English for Specific Purposes) yondashuvi keng rivoj topdi. R. Ellis (2003) va D. Nunan (2004) asarlarida maxsus yo'nalishdagi (professional) matnlar bilan ishlash kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning samarali vositasi sifatida yoritiladi. Ularning fikricha, o'quvchilarning kasbiy kontekstdagi til ehtiyojlarini inobatga olish, til o'rganishni real hayotiy vazifalar bilan bog'lash samaradorlikni oshiradi. Shu jihatdan, huquqiy matnlarni xorijiy til o'qitish jarayoniga kiritish ESP tamoyillariga to'liq mos keladi. Shuningdek, V. K. Bhatia (1993) o'zining "Analysing Genre: Language Use in Professional Settings" nomli asarida huquqiy matnlarni janr lingvistikasi doirasida tahlil qilib, ularning strukturaviy va kommunikativ modellari haqida ilmiy asos beradi. Unga ko'ra, huquqiy matnlar professional muloqotning eng murakkab janridir va ularni o'qitish uchun aniq kommunikativ maqsadlar asosida strategik yondashuv zarur. Zamonaviy o'zbek tadqiqotchilari orasida Sh.Ko'chimov va S.Usmonov ishlarida huquq tilining lingvistik xususiyatlari va xorijiy til o'qitish metodikasi o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilingan. Ularning fikricha, huquqiy matnlarni o'qitish jarayonida terminologik bazani bosqichma-bosqich shakllantirish, matnlarni semantik va kommunikativ jihatdan tahlil qilish orqali o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy fikrlashini rivojlantirish mumkin.

O'tkazilgan tajriba va kuzatuvlar shuni ko'rsatdiki, xorijiy til darslarida huquqiy matnlar bilan ishlash o'quvchilarning nafaqat til ko'nikmalarini, balki tahliliy va mantiqiy fikrlash qobiliyatini sezilarli darajada rivojlantirgan. Tadqiqotda ishtirok etgan talabalar ikki guruhga ajratildi: an'anaviy dars usullari asosida o'qitilgan nazorat guruhi va huquqiy matnlar asosida mashqlar bajargan tajriba guruhi. Tajriba guruhi bilan olib borilgan mashg'ulotlarda qonun moddalari, shartnomalar, sud qarorlari va ariza namunalardan parchalarning tahlili, tarjimasi va muhokamasi tashkil etildi. Har bir dars uch bosqichdan iborat bo'ldi: tayyorgarlik (leksik bazani shakllantirish), tahlil (matn strukturasi va kommunikativ maqsadini aniqlash), hamda refleksiya (shaxsiy fikrni ifodalash va muhokama qilish).

Tajriba natijalariga ko'ra, o'quvchilar ayniqsa real hayotiy kontekstdagi materiallar - sud hujjatlari, xalqaro konvensiyalar, va inson huquqlari bo'yicha hujjatlar ustida ishlashda yuqori darajada motivatsiya namoyon etganlar. Ular uchun bu turdagi mashqlar nafaqat til o'rganish vositasi, balki huquqiy tafakkur va madaniyatni rivojlantiruvchi manba sifatida qabul qilingan.



Tahlil jarayonida shuningdek, talabalar kontrasti tahlil (contrastive analysis) orqali ingliz va o'zbek huquqiy matnlarining o'ziga xos grammatik va pragmatik farqlarini aniqlashga o'rganganlar. Masalan, ingliz huquqiy tili ko'pincha passiv konstruktsiyalar va murakkab predikativ birliklarga tayanadi (It is hereby declared that...), o'zbek huquqiy matnlari esa qisqa, aniq va buyruq ohangidagi gaplar bilan ifodalanadi (Mazkur modda quyidagi tartibda qo'llaniladi). Natijalar shuni isbotlaydiki, huquqiy matnlar xorijiy til ta'limida integrativ o'quv materiali sifatida katta salohiyatga ega. Ular nafaqat leksik va grammatik bilimlarni mustahkamlaydi, balki o'quvchilarning ijtimoiy-huquqiy dunyoqarashini kengaytiradi, real kommunikativ vaziyatlarda o'z fikrini asosli bildirishga o'rgatadi.

Xorijiy til darslarida huquqiy matnlarni tahlil qilish o'quvchilarda nafaqat til ko'nikmalarini, balki huquqiy tafakkurni ham shakllantiradi. Bunday yondashuv til o'rganish jarayonini amaliy va kasbiy jihatdan foydali qiladi hamda til va huquq o'rtasidagi bog'liqlikni ochib beradi. Shu bois huquqiy matnlarni tahlil qilish xorijiy tillarni o'qitishda samarali metod sifatida e'tirof etilishi lozim. Shunday qilib, o'tkazilgan tadqiqotlar xorijiy til ta'limida huquqiy matnlar bilan ishlash interfaol, tahliliy va kasbiy yo'naltirilgan metodlar orqali o'quv jarayonini boyitadi degan ilmiy xulosani tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Bhatia, V. K. (1993). *Analysing genre: Language use in professional settings*. London: Longman.
2. Ellis, R. (2003). *Task-based language learning and teaching*. Oxford: Oxford University Press.
3. Grice, H. P. (1975). *Logic and conversation*. Cambridge, MA: Harvard University Press.
4. Leech, G. (1983). *Principles of pragmatics*. London: Longman.
5. Nunan, D. (2004). *Practical English language teaching*. New York: McGraw-Hill.
6. Searle, J. R. (1969). *Speech acts: An essay in the philosophy of language*. Cambridge: Cambridge University Press.
7. Zorina, E. M. (2002). *Lingvisticheskiye osobennosti yuridicheskikh tekstov*. Moskva: Nauka.
8. Raxmatova, B. I. q. *Legal texts and their functional analysis in applied linguistics*. 2025. – DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.15464154>
9. Rahmatova, B. I. *The role of speech acts in legal discourse: a pragmalinguistic perspective // Al-Bukhari. Scientific journal*. – 2024. – № 4. – P. 45–60. – ISSN 3030-3273.

## **LANGUAGE IN SOCIAL INTERACTION: A SOCIOLINGUISTIC APPROACH.**

**Djalilova Sabokhat Rixsibayevna**

**Lecturer of Uzbekistan State University of Physical Education and Sport, Uzbekistan,  
Chirchik**

Abstract. Sociolinguistics examines how language varies and functions within different social contexts. This field of linguistics investigates the relationship between language and society, exploring how factors like class, gender, ethnicity, age, and region influence the way people speak. This paper introduces the core concepts of sociolinguistics, such as language variation, dialects, code-switching, and language attitudes, while also discussing the importance